

## MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI YANGI BILIMLAR BERISH

**Muxammadxonova Mukarramxon Ulug'bek qizi**

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti*

*Farg'ona filiali 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha yoshidagi bolalarni intellektual rivojlantirishda didaktik o'yinlar orqali yangi bilimlar berishi haqida fikrlar yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *o'yin, ritm, didaktik, domino, rolli o'yin.*

**АННОТАЦИЯ:** *В данной статье рассматриваются способы передачи новых знаний посредством дидактических игр в интеллектуальное развитие детей дошкольного возраста.*

**Ключевые слова:** *игра, ритм, дидактика, домино, ролевая игра.*

**Annotation:** *This article discusses the ways in which new knowledge can be imparted through didactic games in the intellectual development of children of preschool age.*

**Key words:** *game, rhythm, didactic, domino, role-playing game.*

Didaktik o'yinlar ta'limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o'yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O'yinda o'yin niyati, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin niyati o'yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi esa, o'yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o'yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi.

Didaktik o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida didaktik o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o'yinlar mashg'ulot jarayonida va o'yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o'tkaziladi. Bunda o'yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi. Didaktik o'yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

1. Navbatma-navbat ta'sir etish.
2. So'ralganda javob berish.
3. O'rtoqlari fikrini eshita olish.

4. O'yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
5. O'yin qoidasini bajarish.
6. O'z xatosini tan olish.

Didaktik o'yinlarda bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O'yinda o'yin tempi va ritmi katta rol o'ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko'p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o'yin ishtirokchilarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud: a) buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan; b) stol-bosma; d) og'zaki so'z o'yinlari.

Buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga yetgunga qadar o'ynaladigan o'yin turi hisoblanadi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o'yin asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to'g'risida umumiy tushuncha hosil bo'ladi. O'yinda o'ynaladigan har bir buyum yoki o'yinchoq o'zining tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi, narsaning asosiy belgisini ajrata bilish imkonini berishi lozim. Bunday o'yinlar bolalarning narsalarning shakli, hajmi, belgisi, sifati haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

Stol-bosma o'yinlari bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bir tizimga solish, tafakkurini (tahlil qilish, sintez, umumlashtirish, tavsiflash) o'stirish imkonini beruvchi o'yin usulidir. Bu o'yin turiga a) lotto; b) juft rasmlar; d) domino; e) labirint kiradi.

Og'zaki so'z o'yinlari katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladi. Ular bolani eshita olish, zudlik bilan javob topa olish, o'z fikrlarini tez va aniq ifoda eta olishga o'rgatadi. Tadqiqotchilarning fikricha, bunday o'yinlar bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'yin turlarida didaktik maqsad va o'yin materiallarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoidali-harakatli o'yinlar asosini bolaning jismoniy rivojlanishiga qaratilgan harakatlar tizimi egallaydi. Bunda asosan yurish, yugurish, sakrash, chirmashib chiqish, uloqtirish, emaklash kabi harakatlar o'yin mazmunini belgilaydi. Qoidali-harakatli o'yinlar kelib chiqishiga ko'ra: a) xalq milliy o'yinlari; b) mualliflik o'yin turlariga bo'linadi.

Har ikkala o'yin turida ham asosiy mezon o'yin qoidasi bo'lib hisoblanadi. Harakatli o'yinlar harakatlarning aniqligi, ifodaliligi, bolalarda tezkorlik, epchillik, qo'rqmaslik, mardlik kabi olijanob fazilatlarni tarbiyalab boradi. Ko'pchilik harakatli o'yinlar jamoa bo'lib o'ynashga mos, bu jamoada uyushgan holatda harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi. Qoidali harakatli o'yinlarni o'tkazishda bolalarga rolni to'g'ri taqsimlash o'yin jarayonini kuzatib borish, unga rahbarlik qilish, o'z vaqtida yaxshi harakatlarni

ragʻbatlantirish oʻyin nufuzini oshiradi. Oʻyin jarayonida quvnoq kayfiyat, ijobiy his-tuygʻular yuzaga keladi.

Kichik yoshdagi bolalar uchun oʻyin sujeti ochiq xarakterga ega boʻladi. Masalan, «Toʻpni quvla!», «Toʻpni ushlab ol!». Katta yoshdagi bolalar uchun oʻyin maqsadi, qoidasi va oʻyinni tashkil etish murakkablashadi. Qoidali-harakatli oʻyinlar avval jismoniy tarbiya mashgʻulotida oʻrganiladi. Soʻngra boshqa jarayonlarda takroran oʻynatilishi lozim. «Uchinchi ming yillikning bolasi» dasturiga turli yosh guruhleri boʻyicha oʻtkaziladigan harakatli milliy oʻyinlar turkumlari kiritilgan.

Didaktik oʻyin texnologiyalari amalga oshiriladigan ayrim noanaʼnaviy mashgʻulot shakllari:

Ishchanlik oʻyini darsi - mashgʻulot mavzusi boʻyicha masalalarni hal etish jarayonida bolalarning faol ishtirok etishini taʼminlash orqali yangi bilimlarni oʻzlashtirish mashqi.

Rolli oʻyin mashgʻuloti - mashgʻulot mavzusi boʻyicha masalalarni oʻrganishda bolalarga oldindan maʼlum rollarni taqsimlash va mashgʻulot jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan mashgʻulot – mashgʻulot mavzusi bilan bogʻliq sahna koʻrinishlari tashkil etish orqali mashgʻulot mavzusi boʻyicha chuqur, aniq maʼlumotlar berish darsi.

Kompyuter mashgʻuloti - tegishli mashgʻulot turi boʻyicha mashgʻulot mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual oʻquv kursi va shu kabilar) asosida oʻtiladigan dars.

Yarmarka mashgʻuloti - mashgʻulot mavzusini boʻlaklar boʻyicha oldindan oʻzlashtirgan bolalarning oʻzaro muloqot asosida guruhga qiziqarli tushuntirish orqali oʻtiladigan mashgʻulot.

Integral (integratsiyalashgan) mashgʻulot - bir nechta mashgʻulot turlariga doir va integratsiyalash uchun qulay boʻlgan mavzular boʻyicha tashkil qilingan mashgʻulot boʻlib, bolalarning turli mashgʻulot turlarga qiziqishlarini orttirib, taʼlim jarayonidagi faolliklarini taʼminlaydi.

«Moʻjizalar maydoni» mashgʻuloti - bolalar bilan oʻtkaziladigan qiziqarli oʻyin boʻlib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida toʻgʻri javoblar topish va gʻoliblarni ragʻbatlantirish orqali bolalarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

Didaktik oʻyinlarini tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi. Har bir didaktik oʻyin mashgʻulotlariga oʻziga xos xavfsizlik talablari qoʻyiladi, bu xavfsizlik talablariga toʻliq rioya qilinishi har bir tashkilotchining doimiy eʼtiborida boʻlishi lozim. Bundan tashqari har bir didaktik oʻyin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini toʻgʻri belgilash va unga rioya qilishning oʻziga xos

<https://phoenixpublication.uz/>

asoslarini bilish va mashg'ulotning maqsadiga muvofiq qo'llash talab qilinadi. Didaktik o'yin turlarini tanlash mezonlari:

-ishtirokchilar tarkibi bo'yicha - o'g'il bolalar, qiz bolalar, o'smirlar, katta yoshdagilar uchun o'yinlar;

-ishtirokchilar tarkibi bo'yicha - yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, guruh jamoasi, raqobatdosh komandalar va ommaviy o'yinlar

-vaqt me'yori bo'yicha - mashg'ulot, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o'yinlar.

Har bir didaktik o'yin jarayonida o'ziga xos vositalar turlari qo'llaniladi va mashg'ulot jarayonida ulardan to'g'ri, unumli va xavfsiz foydalanish lozim. Bu vositalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin.

-kontselyariya tovarlari - turli o'lchamlardagi oq va rangli qog'ozlar, skotch, ruchka, qalam, chizg'ich, yelim va boshqalar.

-texnika - proektor, mikrofon, kompyuter, televizor;

Maktabgacha ta'limda har bir bola ayrim turdagi didaktik o'yin mashg'uloti o'quv materiallarini amalda qo'llash uchun tayyorlashini tashkil qilish metodik faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bunda bolalar o'z mashg'ulot turlari bo'yicha o'zlari tanlagan mavzudagi mashg'ulotni eng maqsadga muvofiq didaktik o'yin turlaridan foydalanib o'tkazish yuzasidan dars ishlanmasini tayyorlashlari va uning asosida metod birlashma majlisida shu mashg'ulotni bayon qilib berishlari va tegishli muhokamalar o'tkazib borishlari tavsiya qilinadi.

“Doira atrofida”

Boshlovchi bolalarni atrofiga chorlaydi. “Kelinglar bolalar doira bo'lib o'tiramiz. Hammamiz bir-birimizga qarab o'tirishimiz nihoyatda yaxshi to'g'rimi? Endi hammamiz navbat bilan gapirmasdan, jilmayib, bir-birimiz bilan bosh qimirlatib ko'zimiz yordamida salomlashib chiqamiz.”

“Men va boshqalar”

Bu o'yinda guruh doira shaklida o'tiradi va har bir ishtirokchi o'z ismining bosh harfiga bitta ijobiy sifat tuzadi. Masalan: birinchi ishtirokchi o'z ismi va sifatni aytadi - Gulnoza go'zal; 2 - ishtirokchi o'zidan oldingi va o'zining ismi va sifatini aytadi - Gulnoza go'zal; Malika muloyim, 3 - ishtirokchi o'zidan oldingilarning va o'zining ismi va sifatini aytadi - Gulnoza go'zal, Malika muloyim, Maftuna maftunkor. O'yin shu tariqa davom etadi va oxirgi ishtirokchi hammanikini aytib so'ng o'zinikini aytadi.

Agarda ishtirokchi sifatni topishda qiynalsa, tarbiyachi bolalardan yordam berishini taklif etadi. Bu trening xotirani mustahkamlaydi, guruhdagi psixologik muhitni to'g'ri yo'lga qo'yishga yordam beradi. Bolalarning lug'ati ijobiy so'zlar bilan boyidi.

Eslatma: bu o‘yin davomida bolalarning soni 10 tadan oshmasligi lozim.

“Klaster” o‘yini

Maqsad: Klaster usulida transport turlarini guruhlash, ba’zi belgilariga qarab umumlashtira olish, e’tiborli bo‘lish.

Kerakli jihozlar: Turli transportlarning alohida – alohida rasmlar.

O‘yinning borishi: Bolalarga turli xildagi transportlarning alohida-alohida rasmlari to‘plami beriladi. Bolalar transportlarni qaerda harakat qilishlariga qarab guruhlab chiqadilar – yerda yuradigan, osmonda uchadigan, suvda suzadigan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Veksler V. A., Reydel. FUNT. Interfaol simulyatorlar va ularning o'quv jarayonidagi ahamiyati // NovaInfo, №. 41-1, 2016 yil., - b. 10.
2. Smirnova I.E. Veb-dizaynning boshlanishi. S.Pt: "BHV - Peterburg", 2015. - 238 b.
3. Ivanova E. O., Osmolovskaya I. M. Axborot jamiyatida o'rganish nazariyasi 2-nashr. - M. : Ta'lim, 2014. - 189 b.
4. Yadrovskaya, M. V. Pedagogikada modellar va modellashtirish: monografiya / M. V. Yadrovskaya. - Rostov-na-Donu, 2014. - 359 p.
5. Yuldasheva, G. I. (2021). Axborot texnologiyalari-ta'lim sifati kafolatidir. Электронное научнопрактическое периодическое издание «Экономика и социум», (4), 83.
6. Po‘latova, S. I. (2023). VOLEYBOL O ‘YININI O ‘RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 174-178.
7. Yo‘ldashev, I. (2023). O ‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA SAMARALI YO ‘NALTIRISH PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK, IJTIMOY MUAMMO SIFATIDA. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(19), 7-15.
8. Umaraliyevna, X. E. (2024). VOLEYBOLDA–STRATEGIYA VA TAKTIKA. Научный Фокус, 1(9), 274-279.
9. Po‘latova, S., & Xudaybergenova, E. (2024). Shaxsning individual psixologik-xususiyatlari. Modern Science and Research, 3(1), 1-3.
10. Umaraliyevna, X. E. (2024). VOLEYBOLCHILAR SPORT TRENIROVKASINING VOSITALARI. SO ‘NGI ILMYIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 207-213.